



## XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 6-mart

II-9-34-14-220-K/25

Yangihayot tumani

### **Yangihayot tumani mahalliy budjetining 2025-yil qo‘shimcha manbalari mablag‘larini xarajatlarga yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasi va “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda O‘RQ-1011-son Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahrida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish bo‘yicha tegishli farmon va qarorlar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyaning 2025-yil 20-fevraldagi 2-sonli xulosasini inobatga olib, xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashi,

### **QAROR QILADI:**

1. Yangihayot tumani mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyaning 2025-yil 20-fevraldagi 2-sonli xulosasiga asosan Yangihayot tumani mahalliy budjetining 2025-yil qo‘shimcha manbalari mablag‘larini xarajatlarga yo‘naltirish to‘g‘risidagi loyiha “E-kengash” elektron tizimi orqali jamoatchilik muhokamasiga 2025-yil 22-fevral kuni ID-106289 raqami bilan joylashtirilganligi inobatga olinsin.

2. Yangihayot tumani hokimligining taklifiga asosan Yangihayot tumani mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahrida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish bo‘yicha tegishli farmon va qarorlariga muvofiq xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashi kotibiyati, tuman hokimi devoni, shuningdek, davlat boshqaruvi hududiy organlari xodimlarining faoliyatini baholash natijasiga ko‘ra 2025-yil yanvar oyi uchun ularning lavozim maoshlariga ustama belgilash bilan bog‘liq xarajatlarga tegishli tasdiqlovchi hujjat va hisob-kitoblarga asosan ilovaga muvofiq, jami 616 125,0 ming so‘m miqdorida mablag‘ ajratilishi ta‘minlansin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Timerov) tegishliligi bo‘yicha tashkilotlarning xarajatlar smetalariga o‘zgartirishlar kiritsin.

4. Yangihayot tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Maxmudov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Timerov), xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashi kotibiyati (X.Dadabayev), kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (O.Xushboqov), tuman hokimligi bosh hisobchisi (I.Safarov) ajratilgan mablag‘larni o‘rnatilgan tartibda maq‘sadli va samarali sarflanishini ta‘minlasin.

5. Yangihayot tumani G‘aznachilik xizmati bo‘limi (A.Odilov) ajratilgan mablag‘larni o‘rnatilgan tartibda moliyalashtirish choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashi mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (S.Vafayev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Maxmudov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOGAMOV XAYOT  
ILYASOVICH

Xalq deputatlari Yangihayot tumani  
Kengashining  
2025-yil 6-martdagi  
II-9-34-14-220-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

*ming so'm*

T/ r	Tashkilot nomi	Talab etiladigan mablag'
<b>1</b>	Yangihayot tumani hokimligi xodimlarini rag'batlantirish	274 670,0
	Yangihayot tumani Iqtisodiyot va moliya bo'limi xodimlarini rag'batlantirish	114 414,0
	Yangihayot tumani Oila va xotin qizlar bo'limi xodimlarini rag'batlantirish	29 862,0
	Yangihayot tumani Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi xodimlarini rag'batlantirish	8 684,0
	Xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashi kotibiyati xodimlarini rag'batlantirish	26 928,0
	Yangihayot tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi xodimlarini rag'batlantirish	112 690,0
	Yangihayot tumani G'aznachilik xizmati bo'limi xodimlarini rag'batlantirish	48 877,0
<b>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahrida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish bo'yicha tegishli farmon va qarorlariga asosan 2025-yil yanvar oyi uchun rag'batlantirish jami:</b>		<b>616 125,0</b>
<b>Jami:</b>		<b>616 125,0</b>

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahrida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish bo'yicha tegishli farmon va qarorlariga asosan 2025-yil yanvar oyi uchun ustama belgilash**